

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.1.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

JUMAYEV ISLOM XO‘SHBOQ O‘G‘LI

**MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA
TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(Surxondaryo viloyati misolida)**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Jumayev Islom Xo'shboq o'g'li

Mintaqa iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashda turizm sohasini rivojlantirish
istiqbollari (Surxondaryo viloyati misolida).....3

Жумайев Ислон Хўшбоқ ўғли

Перспективы развития туристической отрасли для обеспечения экономической
устойчивости региона (на примере Сурхандарьинской области).....31

Jumayev Islom Xushboq ugli

Prospects for the development of the tourism sector to ensure regional economic
stability (as an example of Surkhondaryo Region).....61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works65

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.1.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

JUMAYEV ISLOM XO‘SHBOQ O‘G‘LI

**MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA
TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(Surxondaryo viloyati misolida)**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Iqt5177 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan..

Ilmiy rahbar: **Aminova Maqsuda Saminovna**
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Matyakubov Umidjon Raximovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Baxtiyrov Shoxzod Sherzodbek o'g'li**
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat _____: _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "____" _____dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T.J.Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD

B.Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy seminar raisi i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv jarayonida mintaqalarni iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, barqaror iqtisodiy o'sish hamda mintaqalarda aholi bandligi, daromadlari va turmush darajasini oshirishda turizm sohasidan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining (International Labour Organization) 2024-yil yillik hisobotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha global ishsizlik darajasi 4.9% ni tashkil qilgan, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan pasayish hisoblanadi (5.3%)¹. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global iqtisodiy o'sish 3,1% va Jahon savdo tashkiloti (JST) tomonidan 2,7% atrofida bo'lishi prognoz qilingan edi, bu mintaqaviy o'zgarishlar bilan sekin, ammo barqaror o'sishni aks ettiradi. Shuningdek, global inflatsiya 2023-yilda 6.8% fan 2024-yilda 5.9% ga va 2025-yil yakunlariga 4.5% gacha barqaror pasayib borishi prognoz qilingan².

Jahonda mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, uni yangi bosqichga olib chiqish, barqarorlashtirish masalalarini chuqur tadqiq qilishda hamda sohada innovatsiyalarni yaratish va amaliyotga joriy qilish, atrof muhitga zarar yetkazmagan holda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va turli kutilmagan inqirozlarga iqtisodiyotning bardoshlilikini ta'minlashdagi ahamiyatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarga kuchli e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda turizm sohasini rivojlantirishning uslubiy asoslarini tadqiq qilish, Surxondaryo viloyatining iqtisodiy barqarorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish, mintaqaning geografik joylashuvi va o'ziga xos mintaqaviy turistik salohiyatini inobatga olib mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlash orqali sohani rivojlantirish modellarini ishlab chiqish, innovatsion yondashuvlar asosida iqtisodiy barqarorlikka erishishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda atrof muhitga ta'sirini baholashning konseptual modelini ishlab chiqish, mintaqa turistik imkoniyatlaridan foydalanishning atrof muhitga ta'sirini baholash yo'llari, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini istiqbolli rejalashtirishda ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash va asosiy yo'nalishlarini belgilashda muhim manba va huquqiy asos vazifasini bajarib kelayotgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu taraqqiyot strategiyasining 21-maqсадida "Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish" belgilab berilgan³. Bunda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023-yildan bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish.

¹ <https://www.ilo.org/resource/other/world-employment-and-social-outlook-trends-2025-figures>

² <https://www.imf.org/en/Publications/WEO>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli farmoni.

Davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash. Har bir tuman budjetining kamida 5 foizini "Fuqarolar budjeti" dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish. Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSH dollaridan oshib ketmasligini ta'minlashga qaratilgan dasturlarni keng joriy qilish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan. Bu o'z navbatida mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikka erishishdagi zamonaviy tendensiyalarini tadqiq qilish, tarkibiy tuzilishdagi o'zgarishlarning ta'sirini baholash, samarali va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashga bag'ishlangan mavzularda tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosa va takliflarni ishlab chiqishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-maydagi "2022 - 2026-yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi VMQ-245 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-avgustdagi "2021-2023-yillarda Surxondaryo viloyatining Muzrabot tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi VMQ-516 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-apreldagi "2020-2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi VMQ-222 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135 sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy mamalakatlarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va uni mintaqa turizm sohasini rivojlantirishdagi ahamiyati, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni baholashning atrof muhitga ta'siri nuqtai nazaridan xorijiy olim va tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, J. C.Dissart, Siegel, B.Paul, G.Thomas, F. Blancas, M.Lozano-Oyola va F. M. Guerrero, J. L. Alfaro Navarro, M. E.Andrés Martínez va J. A.Mondéjar Jiménez, H. Daly, E.Weaver, D. Murphy, J. E. Wagner, M.Halme, Pérez-Montiel, E. Ogli, L. Chen, va Huo, J. B. DeLong, B. Eichengreen, M. Masry, M. Younsi va A. Nafla, V. Koval, J.

C. Dissart, P. B Siegel, R. Boschma ⁴ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida malakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga doir keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, Romanova, O. A., & Ponomareva, T. A. Vasylieva, S. V. Lieonov, O. V. Liulov & K. I. Kyrychenko, N. A. Kravchenko & S. D. Ageeva, M. Burov, D. Yu. Fedotovlar mintaqada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar⁵. Mamlakatimizda mintaqalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda sohani diversifikatsiyalash, mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha B. Ro'zmetov, I. S. Abdullayev, I. O. Yakubov, A. A. Islomov, M. N. Sunnatov, I. Xotamov, M. Sultanov, A. Yadgarov, N. To'xliyev, Q. Haqberdiyev, Sh. Ermamatov, N. Xolmatov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan⁶.

Biroq, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda aynan turizm sohasining roli va sohani tizimli ravishda rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sanoat va qishloq

⁴ Dissart, J. C. (2003). Regional economic diversity and regional economic stability: research results and agenda. *International Regional Science Review*, 26(4), 423-446.; Siegel, Paul B., Thomas G. Johnson, and Jeffrey Alwang. 1995. Regional economic diversity and diversification. *Growth and Change* 26: 261-85.; Sherwood-Call, C. (1990). Assessing regional economic stability: a portfolio approach. *Economic Review-Federal Reserve Bank of San Francisco*, (1), 17.; Blancas, F., Lozano-Oyola, M., Gonzalez, M., Guerrero, F. M., & Caballero, R. (2011). How to use sustainability indicators for tourism planning: The case of rural tourism in Andalusia (Spain). *Science of the Total Environment*, 412, 28-45; Lozano-Oyola, M., Blancas, F. J., Gonzalez, M., & Caballero, R. (2012). Sustainable tourism indicators as planning tools in cultural destinations. *Ecological Indicators*, 18, 659-675. <https://doi.org/10.1016/j.ecolind.2012.01.014>; Alfaro Navarro, J. L., Andrés Martínez, M. E., & Mondéjar Jiménez, J. A. (2020). An approach to measuring sustainable tourism at the local level in Europe. *Current Issues in Tourism*, 23(4), 423-437. <https://doi.org/10.1080/13683500.2019.1579174>; Daly, H. E. (2007). *Ecological economics and sustainable development*. Edward Elgar Publishing; Weaver, D. (2014). The sustainable development of tourism. *The Wiley Blackwell companion to tourism*, 524-534.; Murphy, P. E., & Price, G. G. (2012). Tourism and sustainable development. In *Global tourism* (pp. 167-193). Routledge.; Wagner, J. E. (1997). Estimating the economic impacts of tourism. *Annals of tourism research*, 24(3), 592-608.; Halme, M. (2001). Learning for sustainable development in tourism networks. *Business strategy and the Environment*, 10(2), 100-114.; Pérez-Montiel, J., Asenjo, O., & Erbina, C. (2021). A Harrodian model that fits the tourism-led growth hypothesis for tourism-based economies. *European Journal of Tourism Research*, 27, 2706-2706.; Ogli, E. N. C. (2021). Historical Tourism Opportunities In Muzrabad, Surkhandarya Region. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 3, 220-223.; Chen, L., & Huo, C. (2022). The measurement and influencing factors of high-quality economic development in China. *Sustainability*, 14(15), 9293. DeLong, J. B. (1997). America's peacetime inflation: the 1970s. *Reducing inflation: Motivation and strategy*, 247-80.; Eichengreen, B. (1998). Exchange rate stability and financial stability. *Open Economies Review*, 9, 569-608.; Masry, M. (2015). The role of political stability in achieving economic development. *Journal of Economics and Sustainable Development*, 6(16), 134-154. Younsi, M., & Nafla, A. (2019). Financial stability, monetary policy, and economic growth: Panel data evidence from developed and developing countries. *Journal of the Knowledge Economy*, 10, 238-260.; Boschma, R., Coenen, L., Frenken, K., & Truffer, B. (2018). Towards a theory of regional diversification: Combining insights from evolutionary economic geography and transition studies. In *Transitions in regional economic development* (pp. 55-81). Routledge.

⁵ Romanova, O. A., & Ponomareva, A. O. (2021). The structural factor of regional economic stability in Russia during the coronacrisis period. *R-Economy. 2021. Vol. 7. Iss. 3*, 7(3), 158-169.; Vasylieva, T. A., Lieonov, S. V., Liulov, O. V., & Kyrychenko, K. I. (2018). Macroeconomic stability and its impact on the economic growth of the country; Kravchenko, N. A., & Ageeva, S. D. (2017). Diversification of the economy: institutional aspects. *Journal of institutional studies*, 9(4), 53-67.; Буров, М. (2022). Государственное регулирование национальной экономики: современные парадигмы и механизмы развития российских регионов. Litres.; Федотов, Д. Ю. (2008). Влияние роста доходов населения на экономическую стабильность в России. *Финансы и кредит*, (28 (316)), 63-67.

⁶ Рузметов Б. Региональная экономика. Опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. – Т.: Фан, 2003.- 118 с.; Sultanovich, A. I., & Bulturbayevich, M. B. (2023). Possibilities of effective use of socio-economic potential of regions. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12, 90-96. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. T.:2019.-228 b.; I.Xotamov, M. Sultanov, A.Yadgarov. Atrof - muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti. «Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi», 2021. 312 bet.; To'xliyev N., Haqberdiyev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: «O'zME», 2006. - 280 b.

xo'jaligi tarmoqlarini baholashga doir masalalar yuqoridagi olimlar tadqiqotlarida keng yoritilib berilishiga qaramasdan, mintaqa iqtisodiy barqarorligini baholashda zamonaviy yondashuvlar, iqtisodiy barqarorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlari tahlili hamda mintaqaning turistik imkoniyatlaridan foydalanishning atrof muhitga ta'sirini baholash yo'llari vazifa sifatida belgilanayotganligi mazkur mavzuning tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda turistik xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tavsiya va amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

“iqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiyot” tushunchalarining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatining nazariy-uslubiy asoslari, ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati va vazifalarini ochib berish;

xorijiy mamlakatlar tajribasini tadqiq qilgan holda mintaqaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda turizm sohasining rivojlantirish;

mintaqaning iqtisodiy barqarorlik darajasini baholashning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

Surxondaryo viloyatining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ta'sir qiladigan omillarni tahlil qilish;

mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda atrof muhitga ta'sirini baholashning konseptual modelini ishlab chiqish;

Surxondaryo viloyatining iqtisodiy barqarorligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

mintaqa turizm sohasini istiqbolli rivojlantirishni ekonometrik modellar asosida takomillashtirish;

Tadqiqot obyekti bo'lib Surxondaryo viloyatida turistik xizmatlarni taklif qilayotgan hamda turistik faoliyat bilan shug'ullanayotgan subyektlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmetini bo'lib Surxondaryo viloyatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda turizm sohasini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari, shuningdek, sohani rivojlantirishda istiqbolli va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiyalash induksion va deduksion tahlil, adabiyotlar tahlili, iqtisodiy tahlil, statistik tahlil usullari, qiyosiy tahlil usullari, tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar tahlili usullari, variatsion tahlil, regression va korrelyatsion tahlil, ekonometrik modellashtirish kabi usullardan samarali foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda turizm salohiyatidan samarali foydalanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni o'z ichiga oluvchi hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan atrof-muhitga yetkaziladigan zarar va xarajatlarni minimallashtirishning ekologik jihatdan barqaror rivojlanish maqsadlari taklif etilgan;

mintaqada iqtisodiy barqarorlikka erishishda mavjud iqtisodiy tarmoqlar lokatsion kvotientlar (Location Quotients, LQ) bo'yicha turlarga ajratilib, ($LQ > 1$) tarmoq mintaqada nisbatan yuqori ahamiyatga ega, ($LQ = 1$) tarmoq hudud va milliy miqyosda bir xil nisbiy ahamiyatga ega va ($LQ < 1$) tarmoq hududda nisbatan kam rivojlanganligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi taklif qilingan;

mintaqada iqtisodiy barqarorlikka erishishda servis tarmoqlarining bandlik va iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, daromad manbalarini ko'paytirish va diversifikatsiya qilishga ijobiy ta'sir qiluvchi drayver sifatida taklif qilingan turizmning samarali salohiyatidan foydalanish infratuzilmasi taklif etilgan;

mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda turizm sohasi rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Mintaqa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda turizm salohiyatidan samarali foydalanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari taklif qilindi;

Iqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiyot hamda barqaror turizm tushunchalarining tub iqtisodiy mohiyati turli xil olimlarning ilmiy xulosalariga asoslangan holda muvofiqlashtirildi;

Mintaqa iqtisodiy barqarorlikini ta'minlashda turli xil zamonaviy yondashuvlar ya'ni shift-share (siljish-ulush) tahlili va data envelopment analysis (ma'lumotlarni o'rash tahlili) ko'rib chiqildi hamda input-output (kirim-chiqim) tahlili hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'lchash va tahlil qilishda samarali yondashuvlar sifatida taklif qilingan;

Mintaqa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda Ekologik Kuznets egri chizig'i (EKC) modeli yordamida iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit ifloslanishi o'rtasida teskari U-shakldagi munosabat asosida takomillashtirish taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy ishda olingan natijalar hamda ular asosida shakllantirilgan xulosalar ishonchliligi tanlanilgan yondashuv, qo'llanilgan usullarni, jumladan statistik usullar, ekonometrik modellarlarning to'g'ri va o'z o'rnida qo'llanilganligi, olingan natijalarni mavjud mezonlar yordamida asoslanilganligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalari, O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi davriy hisobotlaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning rasmiy tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi va ilmiy yangiliklarni vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarkibiy tuzilishining o'zgarishi va uning dinamikasi tahlil qilish asosida sohaning hududning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholash, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar rivojlanish tendensiyalari va ularni umumiy mintaqa YaHM ga ta'sirini baholash modellarini ishlab chiqish. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikka

erishishda mintaqalar uchun muhim bo'lgan tarmoqlar va ta'sir doirasi yuqori bo'lgan omillardan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash hamda soha rivojini istiqboldagi ko'rsatkichlarini asoslash bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalarni amaliyotga tadbiq qilish, shuningdek ekonometrik modellashtirishning uslubiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda qo'llanilgan turli xil usullar va ekonometrik modellar, taklif va xulosalardan soha rivojini statistik tadqiqini amalga oshirish hamda ekonometrik modellashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda mintaqaviy o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda tarkibiy tuzilishini takomillashtirishning o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan istiqboldagi davlat, mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish, mavjud muammolarni bartaraf etish hamda oliy o'quv yurtlarida "Mintaqaviy iqtisodiyot" va "Ekonometrika" fanlarini o'qitishda, sohaga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda turizm salohiyatidan samarali foydalanish istiqbollari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mintaqada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda turizm salohiyatidan samarali foydalanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni o'z ichiga oluvchi hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan atrof-muhitga yetkaziladigan zarar va xarajatlarni minimallashtirishning ekologik jihatdan barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha taklif Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 10-oktabrdagi "2022-2026-yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 546-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 9-oktabrdagi 06-06/9370-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish mintaqada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda turizm sohasini rivojlantirish, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik salohiyatidan samarali foydalanish hamda yalpi hududiy mahsulotda xizmatlar hajmini 10-15 foizga oshirish imkonini bergan;

mintaqada iqtisodiy barqarorlikka erishishda mavjud iqtisodiy tarmoqlar lokatsion kvotientlar (Location Quotients, LQ) bo'yicha turlarga ajratilib, ($LQ > 1$) tarmoq mintaqada nisbatan yuqori ahamiyatga ega, ($LQ = 1$) tarmoq hudud va milliy miqyosda bir xil nisbiy ahamiyatga ega va ($LQ < 1$) tarmoq hududda nisbatan kam rivojlanganligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha taklif Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 10-oktabrdagi "2022-2026-yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 546-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 9-oktabrdagi 06-06/9370-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda samaradorlik yuqori bo'lgan turizm sohasi salohiyatidan foydalanish asosida mintaqada qo'shimcha iqtisodiy o'sish darajalarini aniqlab olish imkonini bergan;

mintaqada iqtisodiy barqarorlikka erishishda servis tarmoqlarining bandlik va iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, daromad manbalarini ko'paytirish va diversifikatsiya qilishga ijobiy ta'sir qiluvchi drayver sifatida taklif qilingan turizmning samarali salohiyatidan foydalanish infratuzilmasi bo'yicha taklif

Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 10-oktabrdagi “2022-2026-yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 546-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 9-oktabrdagi 06-06/9370-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu takliflarni joriy qilinishi natijasida mintaqada turistik xizmatlarni taklif qiluvchi tadbirkorlik subyektlar sonini 3-5 foizga, tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy turistlar sonini 10-15 foizga oshirish imkonini bergan;

mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda turizm sohasi rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarning 2025-2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlari bo‘yicha taklif Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 10-oktabrdagi “2022-2026-yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 546-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 9-oktabrdagi 06-06/9370-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur model natijalaridan mintaqada turizmni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 7 ta, jumladan, 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAKning doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola (4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishning tarkibiy tuzilishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti asoslanilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan va ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilib amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning “**Mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobda Iqtisodiy barqarorlik tushunchasi va uning nazariy jihatlarini qarab chiqilgan, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda turizm sohasini rivojlantirishning uslubiy asoslarini qo‘llash imkoniyatlari aniqlanilgan, turistik xizmatlarni rivojlantirish orqali mintaqada iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashning xorijiy mamlakatlar tajribalari o‘rganilgan.

Bugungi kunda jahon iqtisodiy adabiyotlarida iqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiyot tushunchalariga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Bilamizki, iqtisodiy barqarorlik tushunchasi va uning nazariy jihatlarini kengroq yoritishda avvalo asosiy e‘tibor iqtisodiy tizimlar va iqtisodiy faoliyatlarning uzoq muddatda hayotiy va adolatli bo‘lishini ta‘minlashdan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, ko‘pchilik tadqiqotchilar asosan **Klaassen** tomonidan iqtisodiy

barqarorlik tushunchasiga iqtisodiyotning ijtimoiy tenglik va atrof-muhit yaxlitligini muvozanatlashtirgan holda iqtisodiy ishlab chiqarishning belgilangan darajasini cheksiz muddatga qo‘llab-quvvatlash qobiliyatini anglatishi sifatida izohlar berilgan⁷.

Iqtisodiy barqarorlikning asosiy tamoyillari sifatida:

➤ kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolish (tabiiy resurslardan oqilona foydalanish).

➤ ekologik yoki ijtimoiy tizimlarga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish.

➤ boylik va imkoniyatlarning adolatli taqsimlanishini ta‘minlash uchun tengsizlikni kamaytirish.

Dresner iqtisodiyotning barqarorligi deganda iqtisodiyot sohasining innovatsion va inklyuziv nazariyalar, modellar va amaliyotlar orqali atrof-muhit degradatsiyasi, ijtimoiy tengsizliklar va tizimli xavflar kabi uzoq muddatli global muammolarni hal qilish orqali moslashish, rivojlanish va dolzarbligini saqlab qolish qobiliyati muhimligini ta‘kidlab o‘tadi⁸.

Iqtisodiy rivojlanishga mintaqaning sifat va miqdoriy o‘zgaruvchilar asosida belgilangan maqbul rivojlanish jarayonlari orqali erishiladigan, aniq ifodalangan va amalga oshiriladigan mahsulot yoki xizmat natijalari majmuasi (matritsasi) sifatida qarash mumkin (1-rasm).

Mintaqaviy iqtisodiy jarayon

- Xavfsizlik
- Rejalashtirish
- Tahlil
- Strategiya
- Resurslardan foydalanish

Xizmatlar sohasi

- Turistik xizmatlar
- Joylashtirish
- Ovqatlanirish
- Transport
- Moliya va sug‘urta

Mintaqaviy iqtisodiy mahsulot

- Bandlik/ish bilan ta‘minlash
- Farovonlik
- Investitsiya
- Infratuzilma
- Yashash sifat darajasi

1-rasm. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish sifat, xizmatlar sohasi, jarayon va mahsulot natijalarining matritsasi sifatida⁹.


⁷ Klaassen, G. A., & Opschoor, J. B. (1991). Economics of sustainability or the sustainability of economics: different paradigms. *Ecological economics*, 4(2), 93-115.

⁸ Dresner, S. (2012). *The principles of sustainability*. Routledge.

⁹ Stimson, R. J., Stough, R. R., & Roberts, B. H. (2006). *Regional economic development: analysis and planning strategy*. Springer Science & Business Media.

Jamiyatni o‘rganish nuqtai nazaridan “barqaror rivojlanish-bu inson taraqqiyoti tushunchasi, uning prinsipi kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish uchun tahdid yaratmasdan hozirgi zamon ehtiyojlarini qondirish”. Barqaror rivojlanish darajasi iqtisodiy rivojlanish sifatini doimiy ravishda yaxshilash orqali namoyon bo‘ladi. Tarifga ko‘ra barqaror rivojlanish bu o‘zgartirish kerak bo‘lgan dastur, iqtisodiy rivojlanish jarayoni hayot sifatining asosiy darajasini kafolatlaydigan tarzda namoyon bo‘ladi.

Ushbu jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning natijalari tez o‘sishi XX asrning ikkinchi yarmida sanoat ishlab chiqarishini rivojlanishi insoniyatning cheklanmagan ehtiyojlari paydo bo‘lishiga olib keldi. Cheklangan resurslar va atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolarga ongli munosabatda bo‘lib, tez o‘sib borayotgan aholi uchun bandlikni ta‘minlashda xizmat ko‘rsatish tarmoqlari alohida o‘rin tutadi. Uning ulushi jahon iqtisodiyoti Yalpi ichki mahsulotida 10% dan oshadi va jahon xizmatlar eksportida bu taxminan 30% ni tashkil qiladi. Bu sanoati rivojlangan mamlakatlarda odamlar uchun yuqori turmush darajasi bilan qo‘llab-quvvatlanadi.



2-rasm. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonining konseptual modeli¹⁰

¹⁰ Stimson, R. J., Stough, R. R., & Roberts, B. H. (2006). *Regional economic development: analysis and planning strategy*. Springer Science & Business Media.


Hududiy iqtisodiy rivojlanishni yanada barqaror qilish uchun, daromadlarning tashqariga chiqib ketishini kamaytirish zarur. Bunga investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish va importni almashtiruvchi sanoat tarmoqlari hamda xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali erishish mumkin¹¹. Hududlar o‘z iqtisodiyotlarini rivojlantirishga turli yo‘llar bilan yondashishlari mumkin, masalan bitimlar samaradorligini oshirish, aholining o‘shini ta‘minlash, ishlab chiqarish, xizmatlar va logistika tizimlariga qo‘shimcha qiymat qo‘shish, chiqindilar aylanishini optimallashtirish va ularni resurslarga aylantirish, iste‘molni oshirish, eksportni ko‘paytirish va importni kamaytirish kabi choralarni amalga oshirish orqali amalga oshiradilar. Aksariyat hududiy rivojlanish strategiyalarida bu omillarning turli kombinatsiyalari mavjud.

Shuningdek, rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni o‘z ichiga oladi, yani rivojlanish faqat tabiiy muhitning umumiy funksiyasiga, hayotni ta‘minlash funksiyasiga hissa qo‘shadigan turli tarkibiy qismlar o‘rtasida muvozanat o‘rnatilgandagina mumkin bo‘ladi;

Hozirgi avlod kelajak avlodlarga ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy resurslarni yetarli darajada qoldirish orqali ularga o‘zimiznikidan kam bo‘lmagan farovonlik darajalaridan bahramand bo‘lish imkoniyatini taqdim etish uchun ma‘naviy majburiyatga ega. Agar barqarorlikning asosiy xususiyatlari (ekologiya, iqtisodiyot va tenglik) uchburchakning uch nuqtasi sifatida qaraladigan bo‘lsa, u holda ekologiya va iqtisodiyot, shuningdek, iqtisodiyot va tenglik o‘rtasidagi munosabatlar barqaror rivojlanish masalasidagi asosiy nuqtalarni ifodalaydi¹²(3-rasm). Ushbu tizimli yondashuvda barqarorlik “rivojlanish tizimidagi barcha elementlarni shunday shartli optimallashtirish va moslashtirish masalasi sifatida qaraladi, toki tizim umumiy holatda o‘z muvozanatini saqlab qoladi va uning biror elementi boshqalarga zarar yetkazadigan darajada oldinga o‘tib ketmaydi”¹³.

Iqtisodiy maqsadlar:

- O‘shish
- Tenglik
- Samaradorlik



Ijtimoiy maqsadlar:

- Vakolat berish
- Ishtirok etish
- Ijtimoiy harakatchanlik
- Ijtimoiy uyg‘unlik
- Madaniy o‘zlik
- Institutlarni rivojlantirish

Ekologik maqsadlar:

- Ekotizimlar yaxlitligi
- Ko‘tarish qobiliyati
- Biologik xilma-xillik
- Global masalalar

¹¹ Edwards, M. E. (2017). *Regional and urban economics and economic development: Theory and methods*. Routledge.

¹² Creaco, S., & Querini, G. (2003). The role of tourism in sustainable economic development.

¹³ Fossati, A., & Panella, G. (Eds.). (2000). *Tourism and sustainable economic development* (pp. 253-pp). Kluwer Academic.

3-rasm. Ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanish maqsadlari¹⁴.

Fikrimizcha, Surxondaryo viloyatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiyot uchun ustuvor yo'nalishlar hissasini baholash masalalarini ham hisobga olish, kelgusida buning oqibatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan atrof-muhitga yetkaziladigan zarar va xarajatlarni minimallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun eng avvalo ushbu tahlilni amalga oshirishda zarur bo'lgan asosiy omillar ta'sirini tadqiq qilish va bu ko'rsatkichlarning statistikasini yoritish masalasini ta'minlash lozim bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Mintaqada iqtidosiy barqarorlikni ta'minlashda turizm sohasining rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar va imkoniyatlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida Surxondaryo viloyatining iqtisodiy barqarorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tahlili amalga oshirilgan, shuningdek mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda turizm sohasining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili keltirilib o'tilgan hamda mintaqa iqtisodiy barqarorligini baholashda zamonaviy yondashuvlar taklif qilingan.

Ko'pchilik olimlarning izlanishlarida iqtisodiy barqarorlik deganda mamlakat yoki mintaqani Yalpi hududiy mahsulot hajmi va uning yillik o'sish suratlari, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM hajmi va aholi jon boshiga YaHM o'sish sur'atlarini tahlil qilish orqali yakdilroq xulosalarga kelishgan.

1-jadval.

Surxondaryo viloyatining 2018–2024-yillar davomida makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili¹⁵.


	O'lchov birligi	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd. so'm	21 229,4	25 473,1	27 571,6	33 591,1	39 201,8	46 999,2	54 354,1
	o'sish sur'ati, % da	106,0	104,5	102,7	109,3	104,2	105,1	105,9
Sanoat mahsuloti	mlrd. so'm	3 234,7	4 231,3	5 322,7	6 675,3	7 229,8	8 745,4	14 888,7
	o'sish sur'ati, % da	128,1	107,1	106,7	109,7	104,2	105,6	108,9
Iste'mol tovarlari	mlrd. so'm	1 218,0	1 601,3	2 032,4	2 640,6	2 632,0	2 692,5	x
	o'sish sur'ati, % da	101,5	108,9	111,7	112,6	100,7	101,4	x
Asosiy kapitalga investitsiyalar	mlrd. so'm	7 240,6	11 835,1	9 923,0	12 037,8	11 507,3	17 956,0	15 277,5
	o'sish sur'ati, % da	164,2	144,0	76,3	109,7	87,1	145,4	79,3
Chakana savdo tovar aylanmasi	mlrd. so'm	8 846,2	11 055,7	12 545,8	15 151,3	17 428,5	20 787,5	24 883,2
	o'sish sur'ati, % da	103,8	110,5	103,9	108,9	112,0	108,0	109,0
Xizmatlar, jami	mlrd. so'm	6 079,6	6 981,9	7 919,7	10 387,4	12 878,0	15 493,7	28 505,9
	o'sish sur'ati, % da	119,2	103,8	103,3	120,1	114,5	110,5	110,9
	mln. AQSh. Dollar	589,1	562,7	416,9	442,5	372,8	325,2	416,1

¹⁴ Muallif ishlanmasi

¹⁵ Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Tashqi savdo aylanmasi	o'sish sur'ati, % da	157,3	95,5	74,1	106,1	84,2	87,3	126,9
Eksport	mln. AQSh. Dollar	191,7	241,0	213,5	235,2	227,6	217,8	269,5
	o'sish sur'ati, % da	121,9	125,7	88,6	110,2	96,8	95,8	122,4
Import	mln. AQSh. Dollar	397,3	321,7	203,4	267,3	145,2	107,4	146,6
	o'sish sur'ati, % da	182,9	81,0	63,2	101,9	70,1	74,0	136,2

2018-yilda Surxondaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi 21 229,4 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yil yakunida bu ko'rsatkich 54 354,1 mlrd so'mga yetib deyarli 2.5 barobar o'sishga erishgan. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 2018–2024 yillarda taxminan 18–20% atrofida bo'lib, iqtisodiyotda barqaror o'sish tendensiyasi tahlil qilingan yillarda kuzatilgan, shuningdek eng yuqori o'sish 2021-yilda (109,3%) qayd etilgan. Qolaversa, pandemiya tufayli bo'lgan 2020-yilda o'sish sekinlashib, 102,7%ni tashkil etgan. Sanoat mahsulotlari hajmi 2018-yildagi 3 234,7 mlrd so'mdan 2024-yilda 14 888,7 mlrd so'mgacha oshgan. Bu esa sanoat sektorining hajm jihatdan 9 baravarga yaqin kengayganini bildiradi. 2020-yilda sanoat o'sishi pasaygan bo'lsada (106,7%), 2021–2024 yillarda tiklanish yuz berganini ko'rishimiz mumkin. O'sish sur'atlari, 2017-yilda 83,2% (past ko'rsatkich), 2023-yilda 105,6%, 2024-yilda 108,9% ni tashkil qilgan. Iste'mol tovarlar ko'rsatkichlari 2018-yilda 1218,0 mlrd so'mdan 2023-yilda 2692,5 mlrd so'mgacha oshdi. E'tiborlisi, 2024-yilda ham barcha tarmoqlarda o'sish kuzatilgan. 2021–2023 yillarda o'sish barqaror tarzda 100% dan yuqori bo'lgan. Bu ichki bozor va aholi iste'mol salohiyatining kengayganini ko'rsatadi.



4-rasm. Surxondaryo viloyatining turistik infratuzilmasining rivojlanish dinamikasi¹⁶

¹⁶ Muallif ishlanmasi

Shuningdek, so‘nggi o‘n yillik davr maboynida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan turli xil islohotlar, sohani rivojlanishtirish yo‘lida jalb qilinayotgan tog‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar va mintaqada xizmatlar sohasiga berilayotgan katta e‘tibor tufayli Surxondaryo viloyatining turistik infratuzilmasi yildan yilga rivojlanib kelmoqda. Xususan, sohada 2024-yil sayyohlik tashkilotlari va turmarshrutlar sonining oshishi 2022-yil ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanganda, xizmatlarni taklif qiluvchi sayyohlik tashkilotlari 4 barobar hamda turmarshrutlar soni 2.5 barobar oshganini ko‘rishimiz mumkin.

Undan tashqari, gid ekskursovod yetakchilari va turistik xizmat ko‘rsatuvchi avtobuslar hamda joylarda sanitariya gigiena shahobchalarining soni taqqoslangan yillarda sezilarli ravishda oshgan. E‘tiborlisi, mintaqada mavjud sanatoriyalar va sayohatchilarga qo‘shimcha qulayliklarni taqdim qiluvchi elektromobil va gidrosikllar soni ham mos ravishda yildan yilga oshib borishini hamda xizmat ko‘rsatishda qo‘shimcha qiymat yaratishini ko‘rishimiz mumkin.

Qo‘shimcha ravishda, yo‘llarda tashrif buyuruvchilarga va mahalliy aholiga qulaylik yaratadigan ko‘rsatkich belgilarining qo‘yilishi va axborot beruvchi markazlarning sonini ham mos ravishda oshib borishini ko‘rishimiz mumkin. Bu imkoniyatlar va yaratilgan qulayliklar turizm sohasini asta sekinlik bilan rivojlanishiga olib keladi hamda mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim sanaladi. Shuningdek, viloyatning turizm salohiyatini shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda sezilarli farq darajalari mavjudligi aniqlandi hamda ularda mavjud turistik obyektlardan foydalanish yaqin istiqbolda o‘zining ijobiy iqtisodiy ta‘sirini ko‘rsatishi mumkin.

Surxondaryo viloyati	Turizm salohiyati	Asosiy turizm obyektlari	Turizmni rivojlanish istiqbollari	Kutilayotgan iqtisodiy ta‘sir
Termiz sh.	Juda yuqori	Fayoztepa, Hakim at-Termiziy majmuasi	Ziyorat va madaniy turizm markaziga aylanish	Yangi ish o‘rinlari, xizmatlar kengayishi
Oltinsoy t	Past	Qishloq xo‘jaligi yerlari	Agro-turizmni rivojlantirish	Yangi oilaviy tadbirkorlik yo‘nalishlari paydo bo‘lishi
Angor t	Past	Tabiat manzaralari	Ichki turizmni rivojlantirish	Mahalliy xizmatlar kengayadi, diversifikatsiyalanadi
Bandixon t	Past	Dehqon xo‘jaliklari	Agro-turizm loyihalari	Bandlikni oshirish imkoniyati mavjud
Boysun t	Yuqori	Boysun tog‘lari, etnografik	Ekoturizm va madaniy meros yo‘nalishlari	Mahalliy daromad o‘shishi
Denov t	O‘rta	Botanika bog‘i, chegara bozorlari	Ekoturizm va transchegaraviy turizm	Savdo va xizmatlar rivoji
Jarqo‘rg‘on t	O‘rta	Tarixiy obidalar, qadimiy joylar	Madaniy turizmni kengaytirish	Hududiy turizm markazi yaratish
Qiziriq t	Past	Qishloq xo‘jaligi resurslari	Agro- va eko-turizm imkoniyatlari	Qishloq aholisi bandligini oshirish
Sherobod t	O‘rta	Termiz–Sherobod yo‘li bo‘ylab tarixiy joylar	Transport yo‘laklari orqali turizm oqimini oshirish	Infratuzilma modernizatsiyasi

Sho‘rchi t	O‘rta	Tabiat manzaralari, tog‘li hududlar	Ichki turizm va dam olish maskanlari	Aholi daromadlari oshishi
Qumqo‘rg‘on t	O‘rta	Chegara bozorlari, tabiat manzaralari	Savdo-sotiq va turizmni birlashtirish	Hududiy iqtisodiy faollik
Muzrabot t	Past	Cho‘l hududlari, tabiat zaxiralari	Eko-turizmni yo‘lga qo‘yish	Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan daromad olish
Sariosiyo t	Yuqori	Tog‘ manzaralari, daryo bo‘ylari	Ekoturizm va dam olish zonalari	Hududiy infratuzilma rivojlanadi
Uzun t	O‘rta	Tog‘li hududlar, tarixiy joylar	Ichki va xorijiy turistlar oqimini jalb qilish	Yangi mehmonxona va xizmatlar sohasi rivojlanadi


5-rasm. Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlar kesimida turizm sohasining rivojlanish istiqbollari¹⁷.

Surxondaryo viloyatida turizm sohasi iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil sifatida e‘tirof etiladi. Mintaqa tabiiy, tarixiy va madaniy resurslarga boy bo‘lib, tumanlarning aksariyatida turizm sohasini rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish imkoniyati mavjud.

Turizm sohasi mintaqada xizmatlar sohasining rivojlanishini jadallashtiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va infratuzilmani modernizatsiya qilishga turtki beradi. Xususan, Termiz shahri, Boysun va Sariosiyo tumanlari yuqori turizm salohiyatiga ega bo‘lib, ziyorat, madaniy va ekoturizm yo‘nalishlari asosiy rivojlanish manbai hisoblanadi. Denov, Jarqo‘rg‘on, Sherobod, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on va Uzun tumanlari esa o‘rta darajadagi turizm salohiyatiga ega bo‘lib, ichki va chegara turizmini rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish imkoniyatiga ega. Shuningdek, Oltinsoy, Angor, Bandixon, Qiziriq va Muzrabot tumanlarida agro-turizm va ekoturizm yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali mahalliy aholi bandligini oshirish, oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, turizm sohasi mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasining o‘shishiga, byudjet tushumlarining ortishiga, hududiy infratuzilmaning yaxshilanishiga va aholining turmush darajasining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu sohani kompleks rivojlantirish orqali viloyatda barqaror iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy farovonlikka erishish mumkin.

¹⁷ Muallif ishlanmasi




6-rasm. Surxondaryo viloyatining 2014-2023-yillar davomida YaHM hajmi va uning Respublika YaIM hajmi bilan taqqoslama tahlili¹⁸.

6-rasmdagi tahliliy ko'rsatkichlardan shuni tushunish mumkinki, 2014-2023-yillar davomida Respublika bo'yicha ko'rsatkichlar jadal o'sib, 2014-yildagi 186 829,5 dan 2023-yilda 1 191 625,5 gacha yetgan, bu esa so'nggi to'qqiz yilda qariyb 6,5 baravar o'sishni anglatadi. Surxondaryo viloyatida ham ijobiy dinamikaga erishilgan bo'lib, ko'rsatkichlar 9 215,2 dan 46 839,7 gacha oshgan, biroq bu o'sish respublika o'rtacha darajasidan ancha past hisoblanadi. Umuman olganda, mamlakat bo'yicha iqtisodiy faollik va xizmatlar hajmi sezilarli oshgan bo'lsada, Surxondaryo viloyatining ulushi nisbatan kichik bo'lib, uning umumiy iqtisodiy o'sishdagi hissasi pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Shuning uchun, mintaqaning mavjud resurslaridan samarali foydalanish, turizm sohasini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, ushbu tadqiqot ishida Surxondaryo viloyatining 2014-2023 yillar oralig'idagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ya'ni yalpi ichki hududiy mahsulot (YaHM), uning o'sish sur'atlari, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM hajmi va bu ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar hamda istiqboldagi ustuvor yo'nalishlar yuzasidan ilmiy tavsiyalar beriladi.


¹⁸ <https://stat.uz> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



7-rasm. Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar¹⁹

Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 2010–2024-yillar davomida izchil o‘shib borgan. 2010-yilda bu ko‘rsatkich atigi 1614 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 16236,8 ming so‘mga yetgan, ya‘ni o‘shish qariyb 10 baravar bo‘lgan. 2010–2016 yillarda o‘shish sur‘ati nisbatan sekin kechgan bo‘lsa, 2017-yildan boshlab iqtisodiy faollik kuchaygani, ayniqsa 2020-yildan keyingi yillarda daromadlar keskin oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat viloyatda ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar sohasi va mehnat unumdorligining ortgani, shuningdek, turizm va kichik biznesning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Bundan qisqacha shunday xulosa qilish mumkin, hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, sohani rivojlantirish bo‘yicha jalb qilinayotgan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya va innovatsiyalar asta sekinlik bilan o‘z samarasini berib boshlagan. Ramanova o‘z ilmiy xulosalarida mintaqada iqtisodiy barqarorlikni saqlash har qanday jamiyatning hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Bu iqtisodiyotning tashqi zarbalarga bardosh berish va barqaror o‘shish traektoriyasini saqlab turish qobiliyatini anglatadi. Iqtisodiy barqarorlik har qanday iqtisodiyot uchun maqbul xususiyatdir, chunki u investitsiyalarni jalb qiladi, iste‘molni oshiradi va bandlik imkoniyatlarini yaratadi. Iqtisodiy barqarorlikka ta‘sir etuvchi omillar ko‘p bo‘lib, ular global iqtisodiy tendensiyalardan tortib, ichki siyosatgacha bog‘liq hisoblanadi.



8-rasm. Iqtisodiy barqarorlikga ta‘sir qiladigan omillar²⁰

¹⁹ Statistika ma‘lumotlar asosida muallif tahliliy ishlanmasi

²⁰ Chen, L., & Huo, C. (2022). The measurement and influencing factors of high-quality economic development in China. *Sustainability*, 14(15), 9293.

Inflyatsiya - bu tovarlar va xizmatlar narxlarining umumiy darajasining o‘shir sur‘ati bo‘lib, u iqtisodiy barqarorlikka ta‘sir qiluvchi eng muhim omillardan biridir.


Valyuta kurslari bir valyutaning boshqasiga nisbatan qiymatini bildiradi. Valyuta kurslarining o‘zgarishi tovarlar va xizmatlar narxlariga ta‘sir qilishi mumkin, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy barqarorlikka ta‘sir qilishi mumkin.

Siyosiy barqarorlik iqtisodiy barqarorlikka ta‘sir qiluvchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Siyosiy beqarorlik noaniq ishbilarmonlik muhitini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa investitsiyalar va iqtisodiy o‘shirning pasayishiga olib keladi.

Fiskal siyosat iqtisodiyotga ta‘sir qilish uchun davlat xarajatlari va soliqlardan foydalanishni anglatadi. Daromadda yig‘ilganidan ko‘proq mablag‘ sarflagan hukumat byudjet taqchilligiga ega bo‘ladi, bu esa inflyatsiya va iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Pul-kredit siyosati iqtisodiyotga ta‘sir qilish uchun foiz stavkalari va boshqa pul vositalaridan foydalanishni anglatadi. Markaziy banklar foiz stavkalarini moslashtirish, inflyatsiyani nazorat qilish va pul massasini tartibga solish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun pul-kredit siyosatidan foydalanadilar.


Iqtisodiy barqarorlik har qanday iqtisodiyotning rivojlanishi uchun juda muhimdir. Iqtisodiy barqarorlikka ta‘sir etuvchi omillar har xil bo‘lishi mumkin, ammo qaror qabul qiluvchilar ularning ta‘sirini yumshatish uchun choralar ko‘rishlari mumkin. Iqtisodiy barqarorlikka ta‘sir etuvchi asosiy omillarni tushunib, jismoniy shaxslar, korxonalar va hukumatlar iqtisodiy o‘shir va barqarorlikni ta‘minlovchi asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Shuningdek, bilamizki iqtisodiy barqarorlikga erishishda bevosita turizm sohasining o‘rni katta hisoblanadi. E‘tiborlisi, ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda, turizm sohasiga ta‘sir qiladigan omillar tahlilini ham amalga oshirish muhim sanaladi.



9-rasm. Barqaror iqtisodiy o‘shirga xizmatlar sohasining ta‘siri²¹

²¹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

